

OLIV TA'LIM MUASSASALARI O'QUV JARAYONI FUNKSIONALLIGINI O'RGANISH

Xaydarov Mamat Eshkulovich

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, pedagogika fanlari doktori,
professor.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19884484>

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida belgilangan vazifalarni ro'yobga chiqarishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar zahirida mamlakatimiz hududlarida yangi, shu jumladan yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari tashkil etildi, zamonaviy o'quv bosqichlari joriy qilinib, zamonaviy va mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, bilimli hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Mamlakatimizda ham oliy ta'lim muassasalari aynan shunday sub'yektga aylanishlari talab etilmoqda. Bu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "...bizga miqdor emas, sifat kerak. Bunga erishish uchun esa xorij tajribasini yaxshilab o'rganish zarur. Qaysi davlat kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratsa, o'sha yutadi. Ilmiy asoslangan tajriba asosida kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish eng muhim vazifamizdir."

Ajdodlarimiz merosini o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, azal-azaldan "ta'lim - o'quv jarayoni - boshqaruv" tizimli tushunchalariga alohida e'tibor qaratilib kelingan. Xususan, Abu Nasr Forobiyning boshqaruv tizimida ilm - san'atning maxsus turlari bo'yicha fozil, aqlli va mahoratga ega bo'lgan turli kishilarning o'rni alohida ekanligi ifodalanganligi, qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy o'zigacha ma'lum bo'lgan va tarixiy manbalardagi xabarlarini yil hisoblarini qo'llab aniqlashga, ularni saralab, ba'zi o'rinlarda astronomik kuzatuvlari natijasida olgan xulosalari asosida tahlil qilishga uringanligi, shuningdek, idora qilish va boshqarishning mohiyati aziyat chekkanlarning huquqlarini himoya qilish, jamiyatning tinchligi yo'lida o'z tinchligini yo'qotishdan iborat ekanligi ta'kidlaganligi, YUsof Xos Xojibning asarlarida ta'lim ijtimoiy-siyosiy, moddiy va madaniy taraqqiyotining o'lchov birligi ekanligi keltirib o'tganligi buning dalilidir.

Mustaqil O'zbekiston ravnaqining asosiy omillaridan biri malakali kadrlarni tayyorlashga qaratish g'oyasi birinchi Prezident Islom Karimovning asarlarida quyidagicha yoritilgan edi: «Biz hayotimizning turli jabhalarida, xalq xo'jaligining barcha sohalarida tub islohotlarni amalga oshirib, ushbu islohotlar turmush tarzini ijobiy tomonlarini o'zgartirish va ma'naviy yuksalishimizga ko'mak berishi hamda milliy g'urur va iftixorimizni ko'paytirishi ko'p jihatdan har tomonlama yetuk kadrlarga bog'liq ekanligini unutmasligimiz lozim. Respublikamizning iqtisodiy - siyosiy va ma'naviy jihatdan ravnaq topishida bu sohalaridagi muammolarni hal qilishimizda ham milliy kadrlar bosh omillardan biri bo'ladi»

Albatta, "ta'lim - o'quv - boshqaruv" tizimli jarayoni muloqotsiz amalga oshmasligini qayd etgan holda, inson jamiyatda doimiy ijtimoiy muhitda bo'lib, ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish, ish bajarish) faoliyati davomida muloqotga kirishib, o'zi uchun manfaatli va qulay bo'lgan muloqotni tanlaydi. Ayniqsa, shaxsiy muvaffaqiyatga erishishi yoxud rahbarlik faoliyatida yuksak pog'onalarga ko'talishida shunga mos bo'lgan tanlovni amalga oshiradi.

Bu o'rinda, "boshqaruv" tushunchasi odatda aniq bir maqsadga erishish uchun boshqariluvchi ob'yekt yoki tizimga faol ta'sir ko'rsatishni anglatadi

Har qanday faoliyat boshqariladigan ob'jekt va boshqaruvchi sub'jekt tizimlaridan iborat bo'lib, mazkur tizimlar o'rtasidagi o'zaro aloqa insonlar o'zaro munosabatlarining asosini tashkil etadi va muayyan o'zaro munosabatlar ularning faoliyatini ifodalaydi.

Mazkur munosabatlar, odatda ular ixtiyoriy faoliyat hisoblansada, albatta, boshqaruvni talab etadi. SHaxs individual faoliyatida o'zini o'zi boshqaradi va ko'zlangan maqsadli natijaga erishadi.

Bu jarayonlar o'zaro munosabatlar zamirida qurilib, hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish uchun o'zaro ta'sir yoki shaxsning boshqa shaxslarga nisbatan ta'siri bosimida kechadiki, bu mohiyatan zaruriy talab sifatida boshqaruvni, bir mushtarak maqsad(lar)ga erishish yo'nalishida insonlarning o'zaro faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirishni ifodalaydi.

Kishilik jamiyati rivojlanishi, o'z navbatida "ta'lim - o'quv - boshqaruv" tizimining mos ravishda takomillashtirilishini talab etadi. Bu jarayonda boshqaruvning umumiy va tashkiliy tamoyillari konseptual yaxlitlikda ta'lim tizimi takomillashtirilishiga omil bo'ladi. Masalan, ilg'orlik tamoyili har qanday ta'lim muassasasi doirasida boshqaruv tizimi zamon talabga javob berishi, muvoziylik tamoyili esa, boshqaruvidagi jadallikni oshirishga xizmat qiladi.

Aynan ta'lim muassasalari, shu jumladan Oliy ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan ustuvor maqsaddan kelib chiqib, zamon talablariga mos malakali, raqobatbardosh, bilimli, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviyat sohibi bo'lgan yuqori salohiyatli kadrlarni tayyorlash vazifasi yuklatilgan.

SHu bois, mehnat resurslarini boshqarish murakkabligi bilan oliy ta'lim tizimi ajralib turadi. Mazkur boshqarish tizimining markazida professor-o'qituvchilar, o'quv-yordamchi hamda ma'muriy-xo'jalik xodimlar va boshqaruvchi (rahbar)lar turadi.

Ta'lim tizimining oldiga qo'yilgan maqsadga erishish va rejalarning bajarilishi faqat aynan sub'jekt-ob'jekt ishtirokida amalga oshiriladi. Bu jarayonda inson omilini hisobga olish orqali samaralilikka erishiladi.

SHu o'rinda, ta'lim tizimini boshqarish, xususan "ta'lim - o'quv - boshqaruv" jarayonida an'anaviy tarzda qo'llanib kelinayotgan usullarga to'xtalib o'tish lozim.

Usul - bu tadqiq qilish yoki ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilgan faoliyat hisoblanadi.

Majmuaviy tarzda, bu o'rinda, tadqiq qilish nuqtai nazaridan boshqaruv ob'yektini o'rganishda qo'llaniladigan quyidagi:

- tizimli; -majmual; - tarkibiy; -integratsion; -modelli; - kuzatish;
- tajriba-eksperiment; -sotsiologik kuzatuv kabi usullarni qo'llash nazarda tutilgan

Ta'sir ko'rsatish nuqtai nazardan esa, boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish jarayonida boshqaruv ob'yektiga ta'sir o'tkazishning quyidagi:

- funksional tizimosti ob'yektlarini boshqarish;
- boshqaruv funksiyalarini bajarish;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilish kabi usullar tyshyniladi.

Turli yondashuvlar vositasida amalga oshiriladigan funksional boshqaruv faoliyati tizimli - majmali bo'lib, unda boshqaruvning aniq va o'ziga xos usullari qullaniladi.

Boshqaruv jamoaga ta'sir ko'rsatish usullarini o'zida mujassam etadi, bunda qo'yilgan maqsadlarga erishish jarayonida faoliyatni uyg'unlashtirish nazarda tutiladi.

Bu jarayonda zamonaviy rivojlanish talablariga javob beradigan malakali kadrlarni tayyorlash, aynan "ta'lim - o'quv - boshqaruv" tizimining zimmasiga yuklatilgan ma'suliyatli vazifa sifatida qaraldi. Xususan, quyidagilar:

- zamonaviy dasturlar asosida tizim sifatini oshirish;

-mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy istiqbolini hisobga olgan holda tizimni takomillashtirish;

-ta'limning insonparvarligini ta'minlash;

-ta'lim texnologiyalarini amaliyotga joriy etish;

- "ta'lim - fan - ishlab chiqarish" integratsiyasi mexanizmlarini ishlab chiqish va ularning funktsionalligini ta'minlash;

-ta'lim xizmatlari bozorida raqobat muhitini yuzaga keltirish;

-tizimga jamoat boshqaruvining vasiylik va kuzatuvchi kengashlari kiritilishi orqali uni takomillashtirish;

-ta'lim va kadrlar tayyorlash sifati yuzasidan bitiruvchilarning bandlik monitoringi negizida marketing tadqiqotlari olib borilishini yo'lga qo'yish;

-oliy ta'lim sohasida ikki tomonlama foydali xalqaro aloqalarni rivojlantirish "ta'lim - o'quv - boshqaruv" tizimining asosiy vazifalari hisoblanadi.

Bugungi kunda asosiy e'tibor mamlakatning strategik maqsad va vazifalarini amalga oshirishda ta'limi tizimini boshqarish dolzarb masalalardan biridir. Zamonaviy ta'lim tizimi tobora yangilanishi, o'z navbatida, jadal o'zgarayotgan va murakkablashib borayotgan olamda uning oldiga qo'yilayotgan talablar asosida faoliyat ko'rsatishi talab etilmoqda.. Bularning barchasi ta'limni va uning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan sifatini boshqarish murakkablashuviga olib kelmoqdaki, bu jarayonda o'z-o'zidan muammoni hal etishning samarali usullari o'zlashtirish ta'lim tizimi rahbarlari tashkilotchilik, izlanuvchanlik zamirida ta'lim menejmentini puxta egallashlarini talab etmoqda.

Rivojlangan davlatlar tajribasi o'rganish, tahlil etish asnosida mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarini boshqarishni takomillashtirish imkoniyati ortadi. SHu bois, bu o'rinda rivojlangan davlatlar tajribasini tadqiq etish nuqtai – nazaridan yondashilib, Germaniya oliy ta'lim tizimini tadqiq etildi.

Germaniyada yevropaning boshqa davlatlariga nisbatan oliy ta'limni bepul olish imkoniyat mavjud. Bunga nodavlat jamg'armalar hamda hukumat grantlari asosida nemis universitetlarida tahsil olishi orqali erishi mumkin.

Germaniyada mahalliy gimnaziyalarni bitirib, imtyozli shahodatnoma bilan universitetlarga imtihonsiz kirish mumkin. Ta'lim olish istagini bildirgan xorijiy sub'yektlar esa o'qishga kirish uchun nemis tilidan imtihondan o'tishlari talab etiladi.

Universitetlarda bakalavr bosqichi to'rt yarim yilgacha, magistratura bir yildan to'rt yilgacha, doktorantura ikki yildan besh yilgacha davom etadi. Odatda, bakalavriat va magistratura talabalari o'qish yakunida davlat imtihoni topshiradi va dissertatsiya himoya qiladi.

Bu jarayonda talaba o'qish uchun qishki yoki yozgi o'quv mavsumini tanlash huquqiga ega. YOzgi mavsum aprel'-sentyabr', qishki mavsum esa, oktyabr'-mart oylarini qamrab oladi.

Kasbiy oliy maktablar yoki institutlar Germaniya oliy ta'lim tizimining o'ziga xos bo'g'ini sifatida muhandis, iqtisodchi, dizayner, mashinasozlik, ishlab chiqarish, axborot texnologiyalari va sog'liqni saqlash yo'nalishlarida mutaxassislar yetkazib beradi.

Ma'lumotlarga ko'ra, Germaniyaning 370 dan ortiq oliy ta'lim muassasalarida 2 mln.ga yaqin talaba, jumladan, 246 ming xorijlik tahsil olmoqda.

Malayziya oliy ta'lim tizimi funktsionalligini o'rganishni ham lozim topdik.

Malayziyada oliy ta'limning katta qismi hukumat tomonidan moliyalashtiriladi.

Universitetga kirish uchun, o'quvchida yetuklik attestati yoki qo'shimcha ta'lim olganlik sertifikatini - STPM bo'lishi talab etiladi. Har yili Malayziya universitetlari 150 000 dan ortiq malakali bitiruvchilarni tayyorlab chiqaradi.

Malayziyada shuningdek, Kanada, Avstraliya, Singapur va Buyuk Britaniya kabi davlatlarning nufuzli universitetlari o'z filiallari ham faoliyat yuritadi.

Oliy ta'lim muassasalarini boshqarishda rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili asosida shuni qayd etish mumkinki, XXI asrning o'tgan o'n yilliklari davrida jahonda oliy ta'lim tizimida tub o'zgarishlar jarayoni kechmoqda. Bu jarayonlar rivojlanishi quyidagi yo'nalishlarda kechayotganligini keltirib o'tish mumkin:

Birinchi yo'nalish - oliy ta'limning ommaviylashishi. Rivojlanayotgan davlatlarda oliy ta'lim qamrovi ortmoqda. 1980 yillardan keyingi o'tgan qariyb, 50 yil davomida talabalar soni 15 barobar ortib, hozirga kelib ularning soni 500 mln.dan ortdi. Xususan, Qozog'istonda oliy ma'lumotli aholining ulushi jami aholi sonining 30% ini tashkil qilsa, Singapurda ishlaydigan xodimlarning 50%i oliy ma'lumotli ekanligini keltirib o'tish o'rindir.

Ikkinchi yo'nalish - oliy ta'limda globallasuvi. Oliy ta'lim tizimining jozibadorligi uning globallasuvi darajasi bilan belgilanadi. Dunyoda 1980-2020 yillar davomida Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan xorijiy talabalar soni 8,3 barobarga oshib, 5 mln.ga yetdi.

YUNESKOning bashoratlariga ko'ra, 2025 yilda, xorijiy talabalar 7 mln.ga yetishi bashorat qilinmoqda. 2017 yilda eng ko'p xorijiy talabalar soni AQSHda qayd etilgan. Mazkur davlatning universitetlarida 1 mln. xorijiy talabalar tahsil olmoqda va bu ko'rsatkich jahon bo'yicha xorijiy talabalar umumiy sonining 24% ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Angliyada – 11 va Xitoyda – 10 foizni tashkil etganligini keltirib o'tish mumkin. Buning samarasini 2014-15 yillarda xorijiy talabalar Angliya universitetlarida o'qish uchun 4,8 mlrd. dol. to'laganliklari, turli xil tovarlar va xizmatlar uchun ular qo'shimcha ravishda yana 5,4 mlrd. dollar sarflaganligi, o'z navbatida 207 ming ish o'rni yaratilganligini anglatadi. Rossiya Federatsiyasi oliy o'quv yurtlarida chet ellik talabalar sonini 3 barobar oshirib, 2025 yilda ularning sonini 710 mingga yetkazishni rejalashtirganligi ham buning dalilidir.

Uchinchi yo'nalish – raqamli ta'lim va yangi texnologiyalar. Bugungi kunda har qanday joydan va istalgan vaqtda raqamli dunyo maydonida tegishli ma'lumotni olishi mumkin.

Jahonda raqamli texnologiyalarga kam mablag' sarflash evaziga nisbatan birmuncha arzonroq narxlardagi qiymat birligini yaratish jarayoni amal qilmoqda. SHu o'rinda keltirib o'tish o'rirligi, XX asrning birinchi o'n yilligida masofadan o'qiyotgan talabalar soni 1,5 barobar oshgan bo'lsa, keyingi 5 yil ichida bu jarayon jadallashganligini, masalan, Coursera - onlayn ta'lim platformasi 25 mln. talabani, 149 ta eng yaxshi hamkor universitetni, 2 mingdan ortiq o'quv kurslarini qamrab olganligini, Edx tizimida esa 10 mln. mijozlar, 109 ta hamkor universitetlar va 1300 dan ortiq kurs mavjudligini keltirib o'tish buning dalilidir.

To'rtinchi yo'nalish - ta'lim va akademik madaniyat sifati. Ta'lim olish nafaqat ta'lim olish, balki sifatli ta'lim olishni anglatadi. Ispan pedagogi Xose Ortega-i-Gasset tabiri bilan aytganda talabalarni keng qamrovli zamonaviy bilim olishga yo'naltirish orqali madaniyatli shaxsni tarbiyalash universitet original konsepsiyasining asosi sifatida qaralishini tavsiya etish hisoblanadi.

Ta'lim olish imkoniyati va undan foydalanish imkoniyati mos bo'lishi, shuningdek maqbul hamda moslashuvchan bo'lishi zarur. Bu holat xorijiy talabalarning bir joydan boshqa joyga ko'chish imkoniyatlari, chegaralararo va millatlararo ta'lim dasturlarining funktsionalligi hamda milliy va mintaqaviy ilmiy tadqiqot faoliyatlari o'rtasidagi raqobat global oliy ta'lim

sohasi kengayishi va liberallashuviga omil bo'ldi. Bu jarayonda global oliy ta'limning rivojlanayotgan texnologiyalar bilan qamrovi ham o'zgarib, ortib bormoqda.

YUqoridagi keltirib o'tilgan fikrlar ta'lim tizimida o'quv jarayonlarini boshqarish xususiyatlarini o'zida namoyon etgan, "ta'lim - o'quv jarayoni - boshqaruv" tizimi samaradorligi oshirilishiga omil bo'lishi barobarida, mamlakatimizda barkamol raqobatbardosh istiqbolli kadrlarni tayyorlash ishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ruyxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5763-son Farmoni.// <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" PF-5789-son Farmoni// <https://lex.uz>
3. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizning qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - T.: "O'zbekiston", 2017, -592 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: "O'zbekiston", 2017, -104 b
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri. Toshkent, YAngi asr avlodi nashriyoti, 2019. 320 b.
6. Beruniy, Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad. Tanlangan asarlar. - J. I./Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar.- T.: Fan, 1965.- B. 388
7. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiётining poydevori. T.: SHarq, 1998.
8. Ortega-i-Gasset, X. Missiya universiteta//per. s isp. M.N. Golubevoy, A.M. Korbuta; pod red. V. V. Anashvili; Nats. issled. un-t «Visshaya shkola ekonomiki». - 2-e izd. - M.: Izd. dom Visshey shkoli ekonomiki, 2019. -144 s.
9. Baymuratov T.M. Sovershenstvovaniye uchebnogo protsessa kak usloviya modernizatsii visshego obrazovaniya.//Xamkorixoi baynalmilalii muassisaxoi ta'limy - omili muximi baland bardoshtani sifati ta'lim, - Xuchand: Noshir, 2018. - 524 s.